

YER QA'RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN
SOLIQNING FISKAL XUSUSIYATLARI

*PhD Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Keyingi yillarda dunyo mamlakatlari qisqa va uzoq muddatli budjet-soliq siyosatiga oid strategiyasini ishlab chiqishda soliq to‘lovchilar tomonidan soliqdan qochish holatlari oldini olish va uni kamaytirishning turli xil mexanizmlarini joriy etishga alohida e’tibor bermoqda. Shu bilan birga, sohalar o‘rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo‘llash bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: soliq tushumlari, tahlika-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg‘or axborot- kommunikasiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Аннотация: В последние годы страны мира при разработке краткосрочных и долгосрочных стратегий бюджетной и налоговой политики уделяют особое внимание внедрению различных механизмов по предупреждению и сокращению уклонения от уплаты налогов налогоплательщиками. При этом изучались территории, изучался зарубежный опыт, формулировались научно-практические выводы и предложения по его применению в нашей стране.

Ключевые слова: налоговые поступления, анализ рисков, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, передовые информационно-коммуникационные технологии, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

Abstract: In recent years, countries around the world, when developing short-and long-term budget and tax policy strategies, have been paying special attention to the introduction of various mechanisms to prevent and reduce tax evasion by taxpayers. At the same time, areas have been studied, foreign experience has been studied, and scientific and practical conclusions and proposals have been formulated on its application in our country.

Keywords: tax revenues, risk analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

Kirish. Yer qa’ridan samarali foydalanish muammolari bilan texnik, yer tuzish va melioratsiya yo‘nalishidagi fanlar bilan bir qatorda iqtisodiy fanlar doirasida qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsada, soliq tizimi orqali ularidan samarali

foydalinishda samaradorlikni ta'minlash va bu borada soliq to'lovchi tadbirkorlarning ma'suliyati soliq mexanizmlari orqali oshirish masalalari bag'ishlangan ilmiyy tadqiqot ishlari jahonda ustuvorlik kasb etmoqda. Bu borada jahon amaliyotida turlicha iqtisodiy va ma'muriy usullardan keng foydalinishiga qaramasdan ilmiy tadqiqotlar ob'ektida samarali soliq mexanizmlarini joriy etish bog'liq ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj yuqori bo'lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek olimlardan G'.A.Safarov "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tabiiy resurslardan samarali foydalinishini soliqlar vositasida rag'batlantirish" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiya ishida korxonalar va tashkilotlar tomonidan tabiiy resurslar bilan bog'liq ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan kam chiqitli investitsiyalar uchun rag'batlantiruvchi imtiyozlarni qo'llash, tabiiy resurs soliqlarini ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimida ham qo'llashni ilmiy asoslagan, noqishloq xo'jalik korxonalaridan olinayotgan yer solig'ini hisoblab chiqish va undirishda ular foydalanyotgan yerning kadastr qiymatidan undirish mexanizmini joriy qilish masalasini taklif qilgan, yer osti boyliklaridan olinadigan soliqlarni hisoblashda hisobga olish usulini taklif etgan hamda bu soliqni undirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqqan[1].

D.Qurbanov esa o'zining dissertatsion va monografik tadqiqotlari asnosida O'zbekistonda "alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqaruvchi korxonalarda suv resurslaridan tejamli va samarali foydalinishni ta'minlash maqsadida ularga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etish taklifini ishlab chiqqan, shuningdek, avtotransport vositalarini yuvishga ixtisoslashgan korxonalar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni belgilashni asoslagan, suv resurslaridan oqilona va samarali foydalinishni ta'minlashda tadbirkorlik sub'ektlarining yillik yalpi tushumi 1 mlrd. so'mdan oshgan taqdirda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari tarkibiga kiritilishi taklifi" ni ishlab chiqqan[2].

A.Toshqulov qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari soliq to'lovchilarning soliq to'lovchi sifatida maqomini aniqlash, umumbelgilangan tartibda soliqqa tortish, qishloq xo'jaligi korxonalari iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish maqsadida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha pasaytirilgan stavkalarni qo'llash, yangi barpo etiladigan bog', tokzor va tutzorlar egallagan yerlarni soliqlar vositasida rag'batlantirish masalalarining metodologik yo'nalishlarini ishlab chiqqan[3].

Iqtisodchi S. Kuznesov tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab quvvatlash masalalarini nazariy jihatdan tizimlashtirib, jarayonli paradigma sifatida uning bir qancha muhim ilmiy iqtisodiy tadqiqot qoidalari yoritib bergen. Xususan, "Moliyaviy qo'llab quvvatlash" konsepsiysi pul mablag'lari yoki moddiy aktivlarning kombinatsiyasi sifatida taqdim etilishini e'tirof etadi[4].

Amerikalik iqtisodchilar Zvi Bodi va Robert Mertonlar moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimiga aniqlik kiritib, moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi sifatida

ma'lum ob'ektlarga nisbatan qabul qilinadigan tadbirlarni amalga oshirish harakatlari majmuasi va ketma ketligi ekanligini ilgari surishgan. Ular moliyaviy ta'minot bilan bog'liq qo'llab quvvatlash tizimi moliyaviy kategoriya sifatida molianing iqtisodiy mohiyati va funksiyalariga asoslanishi lozimligini e'tirof etishadi[5].

Iqtisodchi S. V. Barulin, moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimini ikki tomonlama jarayon sifatida ko'rib o'tadi. Uning fikricha moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi, alohida iqtisodiy agentlarni moliyaviy ta'minot tizimini ma'lum noaniqliklar sharoitida optimal ta'minlashni muvofiqlashtirish hisoblanadi[6].

Iqtisodchi I.V. Ziyatkovskiyning fikricha, moliyaviy qo'llab quvvatlash yahlit tizim sifatida jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini barqaror rivojlanishini moliyaviy ta'minlash uchun qulay muhit yaratadigan moliyalashtirish manbalari va shakllari tizimidir[7].

T.V. Sokolskaya qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab quvatlash tizimiga aniqlik kiriib, qishloq xo'jaligi tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy va aylanma, xususiy va qarz mablag'lar bilan ta'minlash, yetarli hajmdagi mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash uchun qulay moliyaviy shart sharoit yaratish tizimi ekanligini ta'kidlaydi[8].

Tahlil va natijalar.

Har qanday soliq turining amal qilish mexanizmlarini tahlil qilishda muhim miqdoriy ko'rsatkichlardan biri sifatida soliq to'lovchilarining dinamikasi tahlil qilinadi. Soliq to'lovchilar dinamikasi bu soliq to'lovchilarining yuzaga kelishi orqali soliq tushumlariga ta'sirini miqdoriy jihatdan ko'rsatib bersada, ammo haqiqiy holatni ochib bera olmaydi, chunki, soliq to'lovchi davlat ro'yxatidan o'tgani bilan ammo davlat budgetiga soliq to'ladi deganini bildirmaydi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar boshqa soliq to'lovchilardan farqli jihat shundaki, bunda maxsus talablar asosida litsenziyalash amalga oshiriladi, bu talablarni esa avvalgi bobda nazariy-huquqiy jihatdan keltirib o'tgan edik.

Yuqorida keltirilgan 1.-jadvaldan ko'rish mumkinki, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari soni respublika bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, yillar kesimida oshib borgan. 2020-yilda ularning soni 15354 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda esa ularning soni 2020-yilga qaraganda 632 taga oshgan yoki 41 foizga oshganligini bildiradi. Bu bir tomonidan yaxshi, chunki, respublikamizda hududlarni sotsial-iqtisodiy rivojalantirish bilan bog'liq davlat dasturlarida yer osti boyliklaridan xom-ashyo sifatida foydalananadigan yangi turdag'i korxonalar soliq to'lovchi sifatida davlat ro'yxatidan o'tayotgan bo'lsa, boshqa tomonidan bu soliq turi bo'yicha jismoniy soliq to'lovchilar ham ro'yxatga olinib boshlandi. Masalan, 2021-yilda yer qa'ridan foydalanganlik uchun jismoniy soliq to'lovchilar 5 nafar bo'lgan bo'lsa, 2023-yilning boshiga ularning soni 12 nafarni tashkil qilgan.

1.-jadval

**Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilarning hududlar
kesimida dinamik o‘sishi tahlili¹ (ta)**

Hududlar	yillar			
	2020-y	2021-y	2022-y	2023-y
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	102	101	130	129
Andijon viloyati	97	86	95	115
Buxoro viloyati	80	81	101	126
Jizzax viloyati	60	61	100	114
Qashqadaryo viloyati	158	139	190	212
Navoiy viloyati	126	118	148	168
Namangan viloyati	107	118	142	169
Samarqand viloyati	150	147	200	225
Surxondaryo viloyati	133	137	155	169
Sirdaryo viloyati	42	40	48	64
Toshkent viloyati	184	200	261	295
Farg‘ona viloyati	103	108	127	145
Xorazm viloyati	132	123	109	112
Toshkent shahri	61	69	17	46
YST bo‘yicha HDSI*	53	54	59	78
Respublika bo‘yicha jami	1535	1528	1823	2167

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Geologiya-qidiruv ishlarini yanada rag‘batlantirish va yer qa’ridan foydalanuvchilarga soliq solish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 6-oktabrdagi PF-6319-son Farmoniga muvofiq 2022-yil 1-yanvardan boshlab qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olish faoliyatini amalga oshirishga ruxsat beriladi. Shuningdek, tartibga muvofiq, “Qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olish faoliyatini amalga oshirish uchun yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun ruxsatnomalarga faqat O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari, xususan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkor maqomiga ega jismoniy shaxslar”² hisoblanadi. Agar, buni hududlar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak, yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar eng ko‘p Toshkent viloyatida ro‘yxatga olingan. Ya’ni, bu hududda 2020-yil soliq to‘lovchilar soni 184 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda ular soni 295 tani tashkil qilgan. Samarqand viloyatida ham soliq to‘lovchilarning o‘sishi kuzatiladi, ya’ni, bu viloyatda 2020-yilda 150 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilda esa, 225 taga yetgan.

¹ Vazirlar Mahkamasи huzuridagi Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 25 мартағи “Ер қаъри участкаларидан фойдаланиш хукуки учун рухсатномалар бериш тартибини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари” түгрисидаги 133-сонли қарори.

2.-jadval

**Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilarning jami soliq
to‘lovchilardagi ulushi tahlili³**

Ko‘rsatkichlar	yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Jami soliq yuridik shaxs to‘lovchilar (ta)	526174	514225	589745	650859	744116
Resurs va mol-mulk soliq to‘lovchilar (ta)	225417	279156	312125	364344	409162
Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar (ta)	1458	1535	1528	1823	2167
Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilarning jami soliq to‘lovchilardagi ulushi (%)	0,2	0,3	0,2	0,3	0,3
Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilarning jami resurs soliq to‘lovchilardagi ulushi (%)	0,6	0,5	0,5	0,5	0,5

Garchi yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar soni unchalik umumiy soliq to‘lovchilar ulushida katta o‘rinni egallamasada, ammo soliq tushumlaridan katta ahamiyatga egadir.

Shuningdek, mazkur soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilarning resurs soliq to‘lovchilaridagi ulushini tahlil qiladigan bo‘lsak, unda ham katta ulushni egallamasligini ko‘rish mumkin. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilarning jami resurs soliq to‘lovchilardagi ulushi o‘rtacha 0,5 foiz atrofida bo‘lgan. Resurs soliq to‘lovchilar o‘zini olib qaraydigan bo‘lsak, ularda yer solig‘i katta ulushni egallasa, undan keyingi o‘rinda suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig‘i to‘lovchilari katta ulushga egadir.

Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar tahlil qilinganda ularning barchasi ham soliq hisobotlarini o‘z vaqtida topshirishlari va soliq organlari bilan soliqqa oid munosabatlarga kirishi katta masaladir. Shu boisdan ham yuqorida javdal asosida bu jarayon bo‘yicha holatni tahlil qilamiz. Agar, yuqoridagi jadvalga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, tahlil qilinayotgan 2021-2023-yillar oralig‘ida DSQ ma’lumotlar bazasida soliq to‘lovchilar soni bilan soliq hisoblagan korxonalar soni o‘rtasida o‘rtacha 800-900 taga farq qiladi, bu shundan dalolat beradiki, soliq to‘lovchilarning barchasi ham belgilangan tartibga soliq hisobotlarini taqdim etamagan. Vaholanki, jadvalga qaraydigan bo‘lsak, 2021-yilda Davlat geologiya qo‘mitasi tomonidan berilgan litsenziyalar soni 955 ta, 2022-yilda 2 898 ta va 2023-yilda esa, 3459 ta bo‘lib, mazmunan va mantiqan olib qaralganda bu borada ham farq katta bo‘lib, soliq to‘lovchilar soni bilan farq qiladi. Shularni e’tiborga olib, biz bu jarayonlarni ushbu bobimizning alohida bandida ular bilan bog‘liq soliq nazorati qanday tashkil

³ Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

qilinganligi va uning samaradorligini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisobladik.

3 -jadval

**Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar
to‘g‘risida ma’lumot (trln so‘m)⁴**

Ko‘rsatkichlar	yillar		
	2021	2022	2023
DSQ ma’lumotlar bazasida soliq to‘lovchilar soni	1528	1823	2167
shundan "nol" hisobot taqdim etgan korxonalar soni	595	638	695
Soliq hisoblagan korxonalar soni	1021	1 084	1255
Hisoblangan soliq summasi	1 022 124	1 365 245	2 156 224
Davlat geologiya qo‘mitasi tomonidan berilgan litsenziyalar soni	2 454	2 898	3459
Qazib olish uchun litsenziya olgan yuridik shaxslar soni	955	1 007	1425
DSQ ma’lumoti bo‘yicha jami tafovut	200	608	1016

Bizga ma’lumki, respublikamiz soliq va budget tizimida yirik soliq to‘lovchilar topligi alohida tahlil qilinadi va ularni soliq ma’muriyatçiligi ham alohida olib boriladi. Ular davlat budgeti daromadlarida katta ulushni egallaydi, o‘rtacha 20 ta yirik soliq to‘lovchilar zimmasiga davlat budgetining o‘rtacha 35-40 foizi to‘g‘ri kelmoqda. Bu kabi soliq to‘lovchilar sirasiga O‘zbekneftgaz AJni ham kiritish mumkin. Bu jamiyat nafaqat jami soliq to‘lovlarining hatto yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqning yirik to‘lovchilari hisoblanadi.

Olmaliq kon-metallurgiya kombinati Navoiy kon-metallurgiya kombinati singari mamlakatimizning milliy iqtisodiyoti uchun ham davlat budgetining daromadlarini shakllantirishda ham yuksak salmoqqa egadir. Ushbu kombinatning davlat budgetidagi o‘rniga qaraydigan bo‘lsak, 2020-yilda 11785 mlrd.so‘mlik soliq to‘lagan bo‘lsa, 2023-yilda esa, 7 970 mlrd.so‘mni tashkil etgan, garchi ushbu kombinatning davlat budgetiga to‘lagan soliqlari tahlil qilinayotgan yillar davomida pasayib borgan bo‘lsa, uning yalpi mahsulotdagi ulushi o‘rtacha 1,0 foizni, jami to‘lagan soliqlarining jami budget daromadlarigi ulushi 5-6 foizni, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining yer qa’ridan foydalanganlik uchun solig‘ining jami resurs soliqlaridagi ulushi esa, 12-13 foizni tashkil qilganligi bu kombinatning yuqori fiskal ahamiyatga ekanligini ko‘rsatadi. ЎMazkur korxona ham xuddi respublika budgetiga yuridik shaxslarning foyda solig‘i hamda yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqlar bo‘yicha asosiy tushumlar kon-metallurgiya sanoati korxonalari tomonidan amalga oshirilmoqda.

⁴ Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

4-jadval.

“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati”ning (OKMK) 2020-2023-yillarda davlat budjetiga to‘lagan yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqning tutgan o‘rnini (mlrd so‘m)⁵

Ko‘rsatkichlar	yillar			
	2020	2021	2022	2023
Jami budjetga to‘landi:	11785	12 677	9 118	7 970
Yalpi ichki mahsulot	602 551	734 588	888 342	1 066 569
Jami davlat budjeti daromadlari	132 938	164 799	202 043	232 664
Jami resurs soliqlar	21 257	23 036	23 913	28 310
Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining yer qa’ridan foydalanganlik uchun solig‘i	3095	3 414	3 168	3 092
Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining yer qa’ridan foydalanganlik uchun solig‘ining YaIMdagi ulushi (%)	0,5	0,4	0,3	0,2
Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining jami to‘lagan soliqlarining YaIMdagi ulushi (%)	1,9	1,7	1,0	0,7
Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining jami to‘lagan soliqlarining jami budjet daromadlarigi ulushi (%)	8,9	7,6	4,5	3,4
Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining yer qa’ridan foydalanganlik uchun solig‘ining jami resurs soliqlaridagi ulushi (%)	14,5	14,8	13,2	11,0

Bunga esa, o‘z navbatda mamlakatda foydali qazilmalarni, xususan qimmatbaho va rangli metallar hamda boshqa kamyoq metallarni qazib olish bilan bog‘liq faoliyatning yuqori rentabelligi sabab bo‘lmoqda. Foyda solig‘i bo‘yicha tushumlar 2022-yilda 37,6 trln.so‘mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 713,0 mrld.so‘mga yoki 1,9%ga kamaygan, Oltin va mis qazib oluvchi korxonalardan (NKMK va OKMK) tashqari boshqa soliq to‘lovchilar hisobidan foyda solig‘i tushumlari 2022-yilda 20,3 trln.so‘mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 7,6 trln.so‘mga yoki 60%ga oshgan, o‘z navbatida foyda solig‘ining davlat budjetidagi salmog‘iga yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilarning roli ham oshib borayotganligini ko‘rish mumkin.

Ushbu javdaldan ko‘rish mumkinki, tog‘-kon sanoati tarmog‘i korxonalarining foyda solig‘i tushumlarida katta salmoqni egallaydi. Keltirilgan 2.10-jadval ma’lumotlariga asosan qiyosiy tahlil amalga oshirilganda, 2018-2022-yillar mobaynida foyda solig‘i tushumlarida ayrim sohalarning axamiyati ortib borgan, eng katta 88 foiz tushum iqtisodiyotning ushbu 5 ta tarmoqlariga to‘g‘ri keldi.

⁵ Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari va “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati”ning moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

**Tog‘-kon sanoati tarmog‘i korxonalarining foyda solig‘i
tushumlarning sohalar kesimida tahlili⁶**

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2018-y	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y
Foyda solig‘i (mlrd.so‘m)	3 283	16 361	28 712	38 363	37 650
Tog‘-kon sanoati (mlrd.so‘m)	0	9 856	19 504	25 741	17 823
Foyda solig‘idagi ulushi (%)	0,0	60,2	67,9	67,1	47,3
Ishlab chiqarish (mlrd.so‘m)	1 170	2 125	2 852	4 381	6 485
Foyda solig‘idagi ulushi (%)	35,6	13,0	9,9	11,4	17,2
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	673	1 085	1 884	2 547	4 411
Foyda solig‘idagi ulushi (%)	20,5	6,6	6,6	6,6	11,7
Ulgurji va chakana savdo (mlrd.so‘m)	73	1 260	1 400	2 017	2 911
Foyda solig‘idagi ulushi (%)	2,2	7,7	4,9	5,3	7,7
Qurilish (mlrd.so‘m)	352	530	840	933	1 504
Foyda solig‘idagi ulushi (%)	10,7	3,2	2,9	2,4	4,0
Boshqalar (mlrd.so‘m)	1 015	1 505	2 232	2 744	4 516
Foyda solig‘idagi ulushi (%)	30,9	9,2	7,8	7,2	12,0

Bu borada eng yuqori ko‘rsatkich Tog‘-kon sanoati sohalari hissasiga to‘g‘ri kelib, 2022-yilda foyda solig‘idagi ulushi esa 47,3 foizni tashkil etgan. 2022-yilda respublikamiz soliq tizimida amortizatsiya ajratmalari normalari o‘rtacha 2 barobarga oshirilishi, 2022-yilda amortizatsiya normalari miqdorini ko‘payishi sababli foyda solig‘i bazasidan chegirilgan 8,9 trln.so‘m hisobidan deyarlik 1,3 trln.so‘m mablag‘lar xo‘jalik sub’ektlari ixtiyorida qoldirilgan.

XX asrning 40-50-yillarda O‘zbekistonda geologlar tomonidan olib borilgan qidiruvlar natijasida yirik uran, oltin va mis konlari aniqlandi. Bu esa o‘z navbatida respublikada uran, oltin va misni qayta ishlaydigan ishlab chiqarish korxonalari qurilishiga sabab bo‘ldi. Natijada O‘zbekistonda kon-metallurgiya sanoati vujudga keldi⁷.

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, oltin, kumush va misning o‘rtacha sotish narxi qazib olish xajmi soliq stavkasi Navoiy kon-metallurgiya kombinati Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlarida tahlil qilinganda davlat budgetiga soliq tushumlariga ta’sir qilgan.

Bugungi kunda jahon bozorida bu kabi ayniqsa, oltinning narxidagi ijobjiy konyukturaviy o‘zgarishlar respublikamizda oltinni eksport qilish hisobiga birinchidan, oltin-valyuta zaxiramizni mustahkamlashga xizmat qilsa, boshqa

⁶ Хўжаулов Р. Бюджет даромадларини шакллантиришда тўғри соликларнинг аҳамиятини ошириш. 08.00.07 – “Молия, пул муомаласи ва кредит” иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси АВТОРЕФЕРАТИ Тошкент шаҳри – 2023 йил, 61 б.

⁷ Джулибеков Нурмат Каршибекович. Кон-металлургия саноати корхоналарини соликқа тортиш механизмини такомиллаштириш. 08.00.07 – «Молия, пул муомаласи ва кредит» Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси Автореферати Тошкент шаҳри – 2022 йил, 57 б.

tomondan davlat budgetiga qo'shimcha soliqlarning kelib tushishiga olib kelmoqda. Bu sohaga kiritilayotgan investitsiyalar va ularga oid soliq imtiyozlarini kuchaytirish bu tarmoqning milliy iqtisodiyotdagi qolaversa, davlat budgetidagi fiskal ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq davlat budgetidagi fiskal ahamiyati yil sayin oshib borgan. Bu birinchidan, bunday soliq to'lovchilarining sonining ortib borishi bilan izohlansa, boshqa tomondan bu kabi korxonalarda investitsiyalarning ortishi va bunga oid imtiyozlarning berilishi turtki bo'lgan.

Xulosa va takliflar. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tabiiy boyliklardan samarali foydalanishning iqtisodiy dastagi sifatida iqtisodiyotni tartiblashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi bilan bir qatorda ushbu soliq davlat budgeti daromadlarini shakllantirishda o'rtacha 9-10 foiz atrofida soliq tushumlarini ta'minlab turibdi. Biroq, shuni ham ta'kidlash kerakki, yer qa'ridan foydalanish va iste'mol etishga ixtisoslashgan korxonalar esa, yirik soliq to'lovchi sifatida mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulotdagi ulushi va davlat budgeti daromadlaridagi ulushi jihatdan yuqori ulushlarni egallaydi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, resurslardan samarali foydalanishni soliqqa tortish murakkab iqtisodiy jarayonlarga bog'lanib ketadi, o'z navbatida bu borada ma'lum bir o'z yechimini kutayotgan ilmiy-amaliy muammolar ham mavjud bo'lishi tabiiydir.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси-Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёт уйи 2020.- 640 б.
2. F.A.Сафаров. Хўжалик юритувчи субъектларнинг табиий ресурслардан самарали фойдаланишини солиқлар воситасида рағбатлантириш. Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. Т.Академия. 2006 й. 26 б.
3. Д.Р.Қурбанов Ўзбекистон республикасида сув ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг молиявий механизmlарини такомиллаштириш. И.ф.д (DSc)... дис... автореферати. – Т.: 2020. -38 б.
4. З.А.Х.Тошқулов. “Қишлоқ хўжалиги корхоналари иқтисодий фаолиятини солиқлар воситасида рағбатлантириш масалалари”. И.ф.д (DSc)... дис... автореферати. – Т.: 2021. -47 б
5. Kuznetsov, S.A. (1998). Great Dictionary of the Russian language. – St. Petersburg, “Norint”
6. Bodi, Zv., Merton R.K. (2013). Finance. – Moscow, Publishing House “Williams”, 2013. Bolshakov, S.V. (2006). Finance companies. Theory and practice. – Moscow: Book World, 2006. – 617 p.

7. Barulin, S.V. (2010). Finance. – Moscow, KNORUS, 640 p.
8. Zyatkovskyy, I.V. (2000). The financial support of business – Ternopol, Economic thought, 215 p.
9. Sokolska, T.V. (2014). Financial support for agriculture. Economy and management of agribusiness, issue 1, p. 140-146.
10. I.Yu.Zoxidov “Yer qa’ridan samarali foydalanishda soliq mexanizmining rolini oshirish masalalari” I.f.f.d (PhD) dissertasiyasi avtoreferati T.: 2025. -18 6.